

**JAMOAVIY ISHDA IJTIMOYIY ROLLARNING SHAKLLANISHI
(BOSHLANG’ICH SINFLAR)**

Abdurasulova Sevinch Abdug`ani qizi

TAFU PP2201U11 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarida ijtimoiy rollarning shakllanishi maktabga ilk qadamini qo`ygan o`quvchilar moslashuv jarayoni va o`qish faoliyati davomida tahlil etilgan. Muallif maktabga ilk qadamini qo`ygan o`quvchilarda o`qish jarayonida sodir bo`layotgan ijtimoiy rollar shakllanishini ochib bergan. Shuningdek, maktabga birinchi marotaba chiqarayotgan bolalarning sinf muhitiga tezroq va samarali moslashuviga ta`sirini yoritib bergan. Ushu o`quvchilarning sinf jamoasida o`z o`rinini topishi, muloqotga kirisha olishi sinfdoshlaridan alohida ajralib qolmasligi hamda hamkorlik ko`nikmalari maqolada izchil tahlil qilingan.*

Kalit so`zlari: *maktabga moslashuv, muloqotchanlik, sinf jamoasi, hamkorlik, o`qish faoliyati, rollar shakllanishi.*

Аннотация: *В данной статье проанализировано формирование социальных ролей у учащихся начальных классов в процессе их адаптации к школе и в ходе учебной деятельности. Автор раскрывает формирование социальных ролей, происходящее у детей, делающих первые шаги в обучении. Также освещается влияние факторов, способствующих более быстрому и эффективному приспособлению детей, впервые поступающих в школу, к классной среде. В статье последовательно проанализированы вопросы нахождения ребёнком своего места в классном коллективе, его способности вступать в общение, не выпадать из среды сверстников и развивать навыки сотрудничества.*

Ключевые слова: *школьная адаптация, коммуникативность, классный коллектив, сотрудничество, учебная деятельность, формирование ролей.*

Abstract: *This article analyzes the formation of social roles among primary school students during their adaptation to school and throughout the learning process. The author explores how these roles develop in children who are taking their first steps into school life. The article also highlights the factors that contribute to a faster and more effective adjustment of first-time school children to the classroom environment. It provides a coherent analysis of how children find their place within the class community, engage in communication, avoid social isolation, and develop cooperation skills.*

Keywords: *school adaptation, communicativeness, class community, cooperation, learning activity, role formation.*

KIRISH

Mamlakatimizda boshlang’ich sinflar uchun “Ilm yo’li” variativ dasturi asosida maktabga tezroq va samarali moslashuvini, shu dastur asosida bolalarni maktabga qiziqishini yanada ortishini bilib olishimiz mumkin. Mazkur dastur mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar bolalarning boshlang’ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorgarlik guruhlari mavjud bo’lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog-xodimlari uchun mo’ljallangan. Dasturda ilovalarning keng doirasi taqdim etilgan bo’lib, ishonamizki, ular nafaqat maktabgacha ta’lim sohasidagi mutaxassislariga, shuningdek, ota-onalarga ham foydali bo’ladi. Dastur mualliflari mazkur dasturning ishlab chiqilishida uni qo’llab-quvvatlagan, o’z fikrlari va tavsiyalarini bergan mutaxassislariga chuqur minnatdorlik bildiradilar. Biz uchun hamkasblar va hamkorlar bilan ishlash katta sharafdir, umumiy maqsadimiz barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar va sifatli ta’limni ta’minlash. “Ilm yo’li” variativ dasturi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ilmiy-metodik kengashining 2022-yildagi 25-oktabrdagi 9-son yig’ilish qarori bilan, Maktabgacha ta’lim vazirligi huzuridagi o’quv metodik ishlarni muvofiqlashtiruvchi yig’ilishining 2022-yildagi 30-dekabrdagi 4-son bayoni bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan. “Ilm yo’li” variativ dasturi – 6 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan bolalarni maktabga tayyorlash uchun rivojlantiruvchi, ta’limiy-tarbiyaviy dastur hisoblanadi.

1. Dasturning maqsad, vazifa va tamoyillari

O’zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, maktabgacha ta’limga teng imkoniyatlar yaratishning zaruriyati va muhimligi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning muqobil va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni taqazo etadi. “Ilm yo’li” variativ dasturi Davlat talablari, Davlat o’quv dasturi, Maktabgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga tayangan holda bolaga yo’naltirilgan sifatli pedagogik tamoyillarga asoslangan. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bolaning intellektual salohiyatini to’liq rivojlantirish uchun haftasiga 9 soatdan 15 soatgacha ta’lim faoliyati yetarli bo’lib, bu bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli hisoblanadi, shu jumladan, 6 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan bolalarni boshlang’ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari kamxarj va samaralidir.

1.1 Kuzatish va baholash

Kuzatish – bu bolaning ishlayotgan yoki o’ynayotgan paytida, uning faoliyatiga aralashmagan holda uni kuzatish jarayonidir. Pedagog bolani kuzatish orqali xatti-harakatining turi, bilim olish bo’yicha qiziqishlari, ko’nikmalar darajasi va rivojlanishidagi ijobiy o’zgarishlarni aniqlaydi.

Bolalar rivojlanishidagi ijobiy o’zgarishlarni ularni tabiiy sharoitda (uyda, guruhda, ochiq maydonchada), kun davomida turli vaqtda, butun yil davomida hamda to’plangan ma’lumotlarni hujjatlashtirib borgan holda baholashning eng ishonchli usuli hisoblanadi.

Pedagogning ishi aynan pedagogik kuzatuvdan boshlanishi zarur, chunki u bolani tushunishga, bolani tushunishdan esa – u va oila a’zolari bilan o’zaro aloqalarning eng maqbul strategiyasini tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

1.2 Ijodiy rivojlanish

Soha: Dunyoni badiiy tasavvur etish

Kuzatuv yordamida bola rivojlanishining har bir sohasi bo‘yicha Davlat talablaridan kelib chiqqan holda,

Kuzatuv yordamida bola rivojlanishining har bir sohasi bo‘yicha Davlat talablaridan kelib chiqqan holda,

Kuzatuv yordamida bola rivojlanishining har bir sohasi bo‘yicha Davlat talablaridan kelib chiqqan holda Talab: Bola turli xil san‘at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish tushunishini namoyish etadi.

Kutilayotgan natijalar:

- she‘rni ifodali o‘qib bera oladi;
- tanish asarlarni mustaqil so‘zlab beradi, ularni sahnalashtirishda ishtirok etadi;
- she‘riy va nasriy badiiy asarlarga munosabat bildiradi;
- musiqiy asarning xarakterini aniqlashga qodir;
- bolalar shoiri, yozuvchisi va bastakorlari hamda ularning asarlarini biladi;
- tasviriy san‘at turlarini farqlaydi.

Soha: Badiiy-ijodiy qobiliyatlar

Talab: Bola atrofdagi borliqni ijodiy o‘zgartirish malakasiga ega bo‘ladi.

Kutilayotgan natijalar:

- turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi;
- yakka va jamoaviy tarzda qo‘shiq ayta oladi;
- raqsdan harakatlariga jilo bergan holda shaxsiy namuna yaratishi mumkin;
- musiqiy asboblarda yakkaxon yoki orkestrda jo‘r bo‘lib chalishi mumkin;
- g‘oya yaratadi va tatbiq etadi;
- maqsadga erishishda o‘rindosh sifatida turli predmetlar qo‘llaydi;
- turli spektakllarda rol ijro etib ishtirok etadi;
- olamni o‘zgartirishda insonning yaratuvchi rolini anglaydi;
- buyumlarni ikkilamchi qo‘llashda g‘oyalar taklif etishi mumkin.

2. Ijtimoiy - hissiy rivojlanish kompetensiyalari

Ijtimoiy hissiy rivojlanish (IHR) kompetensiyalari bu – shaxsning o‘zini va boshqalarni tushinishi, hissiyotlarini boshqarishi, ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil qilishi va jamiyatda faol o‘ynashga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalardir.

Ushbu kompetensiyalar nafaqat bolalarda, balki kattalarda ham muhim ijtimoiy va emotsional barqarorlikni shakllantiradi. Hissiyotlarni tanib bilish: bolalar va kattalar o‘z his tug‘yularini aniqlay olishi, ularga nom berishi muhim hisoblanadi. Masalan, “men g‘azablandim” yoki “men qo‘rqayman” degan hislarni tushunishdir.

2.2 Ta‘lim-tarbiya jarayonida pedagogning asosiy faoliyati

6-7 yoshdagi bolaning o‘ziga xos bo‘lgan yutuqlarining ijtimoiy-me‘yoriy yosh xususiyatlarini ifodalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining individual xususiyatlari maktabgacha yoshdagi boladan davlat talablariga to’liq mos keladigan ta’lim yutuqlariga qo’yiladigan talablarni to’liq talab etmaydi, ta’lim dasturini o’zlashtirilishini kutilayotgan natijalar shaklida aniqlashni talab qiladi.

Davlat talablariga muvofiq bolalarda kutilayotgan natijalar:

- to’g’ridan-to’g’ri baholash mumkin emas, ya’ni bolalarning haqiqiy yutuqlarini davlat talablari bilan rasmiy taqqoslashga yo’l qo’yilmaydi (bolalarni sinovlardan o’tkazilishiga yo’l qo’yilmaydi);

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatni ob’yektiv baholash hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari faoliyatini xolis baholash uchun asos bo’lmaydi;

- pedagog kadrlarni attestatsiyadan o’tkazish kabi boshqaruv vazifalarini hal etishda hamda Davlat o’quv dasturini o’zlashtirish sifatini baholashda rasmiy asos bo’la olmaydi.

Bolalarda kutilayotgan natijalar maktabgacha ta’lim tashkiloti jamoasining o’quv jarayoni va kasbiy faoliyatini tahlil qilishda direktor va pedagoglar uchun asos bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang’ich sinf o’quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning o’rni. Buxoro: O’zbekiston 2022

2. “Ilm yo’li” variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). Toshkent: O’zbekiston 2022

3. Soff elektron xizmati. – URL: <https://soff.uz> (murojaat qilingan sana: 20.11.2025).

4. “Elektron hukumat” // Wikipedia. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Elektron_hukumat (murojaat qilingan sana: 21.11.2025).

5. Ijtimoiy ish // Vikipediya, erkin ensiklopediya. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_ish (murojaat qilingan sana: 22.11.2025).